

SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH

Payziyev Hamid Orziquvovich

Surxondaryo viloyati soliq boshqarmasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16757469>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda soliq qarzdorligini undirish bo'yicha mavjud mexanizmlar tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Soliq qarzdorligi iqtisodiy muvozanatga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida ko'rilib, moliyaviy barqarorlikka erishishda undirish mexanizmlarining zamonaviylashuvi dolzarb yo'nalish sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq qarzdorligi, undirish mexanizmi, moliyaviy barqarorlik, majburiy undiruv, soliq siyosati, ma'muriy choralar, elektron tizimlar.

Davlat moliya tizimining barqaror ishlashi bevosita soliqlarni to'plash samaradorligiga bog'liq. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai sifatida nafaqat ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, balki umumiy iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'rinnegallaydi. Shu boisdan soliq tushumlarining o'z vaqtida va to'liq undirilishini ta'minlash, ayniqsa soliq qarzdorligini samarali boshqarish va undirish masalasi mamlakat moliyaviy siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Soliq qarzdorligi – bu soliq to'lovchining belgilangan muddatda o'z majburiyatlarini bajarmaganligi oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy muammo bo'lib, u davlat byudjetining daromad qismini kamaytirish, budget defitsitini oshirish, iqtisodiy muvozanatni buzish va investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bugungi globallahuv va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida har bir mamlakat uchun soliq qarzdorligini oldini olish va mavjud qarzdorlikni tezkorlik bilan undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda oxirgi yillarda soliq ma'muriyatichilagini isloh qilish, raqamlashtirish va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish yo'nalishida muhim natijalarga erishildi. Soliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida elektron soliq hisobotlari, mobil ilovalar, shaxsiy kabinetlar va boshqa zamonaviy vositalar ishga tushirildi. Shunga qaramay, soliq qarzdorligini undirish mexanizmlarida hali ham bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, qarzdorlikni aniqlash va uni undirishda texnik va huquqiy to'siqlar mavjud, axborot tizimlarining integratsiyasi to'liq ta'minlanmagan, ijro amaliyotida kechikishlar kuzatilmoqda.

Mazkur holat moliyaviy barqarorlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan xavflarni kuchaytiradi. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz yoki byudjet defitsiti davrida mavjud soliq qarzdorliklarini to'liq va tezkor undira olmaslik davlat moliya resurslarining yetishmovchiligiga olib keladi. Shu sababli, soliq qarzdorligini undirish mexanizmini tubdan takomillashtirish, samarali va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali byudjetga tushumlar barqarorligini ta'minlash zarurati ortib bormoqda.

Ushbu maqola soliq qarzdorligini undirishdagi mavjud mexanizmlarni tahlil qilish, amaldagi tizimdagи kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan zamonaviy taklif va yechimlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan. Bunda nafaqat normativ-huquqiy asoslar, balki texnologik infratuzilma, soliq to'lovchilar bilan muloqot madaniyati va boshqaruv yondashuvlari ham chuqur tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — moliyaviy barqarorlikka erishish uchun soliq qarzdorligini samarali undirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berishdan iboratdir.

Asosiy qism

Soliq qarzdorligini undirish – bu nafaqat texnik yoki huquqiy masala, balki davlat moliya tizimining ishonchliligi, soliq to'lovchilar intizomi va umumiyligi qitisodiy barqarorlik bilan chambarchas bog'liq muhim jarayondir. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda uchta asosiy omil ajralib turadi: soliq ma'muriyati faoliyatining operativligi, soliq to'lovchilar bilan samarali axborot almashinuvi, va sud-ijsro tizimining barqaror ishlashi.

Amaldagi tartibga ko'ra, soliq qarzdorligini undirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: ixtiyoriy to'lovlar uchun eslatmalar yuborish, ogohlantirishlar berish, so'ngra majburiy undirish choralarini qo'llash (hisobvaraqlarni muzlatish, mol-mulkni xatlash, sud qaroriga asosan undiruv). Ammo bu tizimda vaqt cho'zilishi, hujjat aylanishining ko'p bosqichli bo'lishi va ayrim hollarda texnik nosozliklar tufayli byudjetga tushumlar kechikmoqda.

Qarzdorlikni undirishdagi muhim muammolardan yana biri – soliq to'lovchilarning o'z qarzdorlik holati haqida o'z vaqtida va to'liq xabardor qilinmasligidir. Hozirgi kunda ko'plab soliq to'lovchilar qarzdorlik yuzaga kelganini faqatgina ogohlantiruv yoki ijro xatidan so'ng bilib olishadi. Bu esa ziddiyatli holatlar, shikoyatlarning ortishi, sud jarayonlarining ko'payishiga olib keladi. Elektron bildirishnomalar, mobil ilovalar va SMS/e-mail ogohlantirishlar orqali qarzdorlik haqida tezkor axborot berish tizimi keng joriy etilishi bu muammoni sezilarli darajada bartaraf etadi.

Soliq qarzdorligini undirishda elektron tizimlar, sun'iy intellekt algoritmlari va avtomatik monitoring vositalarining qo'llanishi katta samaradorlik keltiradi. Masalan, soliq to'lovchining moliyaviy harakati, to'lov intizomi, aktivlar holati haqida real vaqt ma'lumotlar asosida tahsil qiluvchi tizimlar yordamida, qarzdorlik yuzaga kelishidan oldin xavf darajasi aniqlanib, profilaktik choralar ko'riliishi mumkin. Shu bilan birga, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bank o'rtaida real vaqt rejimida axborot almashish tizimi qarzdorlik yuzasidan hisobvaraqlarga zudlik bilan cheklov qo'yishni ta'minlaydi.

Yana bir dolzarb yo'naliш – bu soliq qarzdorligini sudsiga bo'lgan tartibda hal qilish tizimini kengaytirishdir. Har bir soliq to'lovchi bilan individual ishslash, restrukturizatsiya, qarzdorlikni bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha kelishuvlar, ishonchli to'lovchilarga imtiyozlar berish orqali majburiy undirish darajasini kamaytirish mumkin. Bu yondashuv davlat tomonidan moliyaviy yukni kamaytirish va soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan ijobiy samara beradi.

Shuningdek, soliq qarzdorligini undirishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini keng joriy etish lozim. Soliq qarzdorlariga doir axborotlarning bir qismi (masalan, yirik qarzdorlar ro'yxati) jamoatchilikka taqdim etilishi, ijtimoiy nazorat elementlarini kuchaytiradi va to'lov intizomini oshiradi. Bu bilan jamiyatda soliq to'lash madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qilinadi.

Umuman olganda, soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'naliшlar ustuvor hisoblanadi: tizimni to'liq raqamlashtirish; real vaqt rejimida monitoringni yo'nga qo'yish; to'lovchilar bilan ochiq muloqotni kuchaytirish; profilaktik va individual yondashuvni kengaytirish; huquqiy asoslarni soddallashtirish; va sudsiga bo'lgan tartiblarni keng qo'llash.

Xulosa

Soliq qarzdorligini undirish mexanizmining zamonaviylashtirilishi moliyaviy barqarorlikning muhim garovidir. Bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan har bir islohot – nafaqat byudjet daromadlarini ta‘minlash, balki davlat va soliq to‘lovchi o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatalishiga xizmat qiladi. Takomillashgan mexanizmlar yordamida qarzdorlik darajasi kamayadi, undirish samaradorligi ortadi, va nihoyat, iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Shu sababli, soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri aynan undirish tizimini kompleks tarzda isloq qilishdan iborat bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.
2. Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy axborot portali – www.soliq.uz
3. Raximov B. Soliq qarzdorligini undirish tizimini isloq qilish yo‘llari. // Moliya va iqtisodiyot jurnali. – 2023, №1(45), 26–33.
4. OECD. (2021). *Tax Debt Management: Best Practices and Innovations*. Paris: OECD Publishing.
5. Karimov I.I. Soliq tizimida raqamlashtirish va ijro mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi. – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar instituti, 2024.